



IQTISODIY RIVOJLANISH BARQARORLIGINI TA'MINLASH ASOSLARI



Jumayeva Dilafro'z Xamroyevna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi davrdagi muhim muammoi hisoblanadi. Iqtisodiy tizim barqarorligiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni pisand qilmaslik iqtisodiy va ijtimoiy nomutanosibliklarning kuchayishiga, ishlab chiqarish pasayishining jadallahishiga, ishsizlikning oshishiga, inflyatsiya va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. Mazkur hodisalar majmui, o'z navbatida, davlat iqtisodiy xavfsizligining kamayishiga va yo'qotilishiga hamda aholi turmush darajasining keskin pasayishiga olib keladi. Shuning uchun iqtisodiy barqarorlikni muntazam ta'minlab borish iqtisodiyot taraqqiyotining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Maqolada shu kabi masalalarning nazariy-metodologik jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy barqarorlik, metod, moliya, rentabellik, ishsizlik, xavfsizlik, turmush darjasasi, tizim.

ПРИНЦИПЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Джумаева Дилафроз Хамроевна
Бухарский инженерно-технологический институт,
доцент кафедры экономики и управления

Аннотация: Обеспечение стабильности экономической системы является важной проблемой социально-экономического развития страны в настоящее время. Игнорирование факторов, влияющих на устойчивость экономической системы, приводит к усилению экономических и социальных дисбалансов, ускорению спада производства, росту безработицы, инфляции и другим негативным последствиям. Такой комплекс событий, в свою очередь, приводит к снижению и утрате экономической безопасности государства и резкому снижению уровня жизни населения. Поэтому регулярное поддержание экономической стабильности является одним из наиболее актуальных вопросов экономического развития. В статье рассматриваются теоретические и методологические аспекты таких вопросов.

Ключевые слова: Экономическая стабильность, метод, финансы, рентабельность, безработица, безопасность, уровень жизни, система.

PRINCIPLES OF ENSURING SUSTAINABILITY OF ECONOMIC DEVELOPMENT

Jumayeva Dilafroz Khamroyevna

Bukhara Institute of Engineering and Technology,

Associate Professor of the Department of Economics and Management

Abstract: Ensuring the stability of the economic system is an important problem of the socio-economic development of the country at the present time. Ignoring the factors that affect the stability of the economic system leads to the increase of economic and social imbalances, the acceleration of the decline in production, the increase of unemployment, inflation and other negative consequences. This set of events, in turn, leads to a decrease and loss of the state's economic security and a sharp decrease in the standard of living of the population. Therefore, regular maintenance of economic stability is one of the most urgent issues of economic development. The theoretical and methodological aspects of such issues are discussed in the article.

Key words: Economic stability, method, finance, profitability, unemployment, security, standard of living, system.

KIRISH

Bugungi kunda barqaror iqtisodiy rivojlanish har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy barqarorlik nafaqat iqtisodiyotning doimiy ravishda o'sishini ta'minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga ham xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi" hamda 2022–2026 yillar uchun qabul qilingan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" bu borada muhim hujjatlar hisoblanadi. Ushbu strategiyalar doirasida iqtisodiy barqarorlikka erishishning yangi yondashuvlari ishlab chiqilib, amaliyotga tafbiq etilmoqda.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish global miqyosda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuv jarayonlarida muhim o'rIN tutar ekan, O'zbekiston iqtisodiyoti ham zamonaviy tendensiyalarga moslashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu boisdan iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni tatbiq etish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida [1] davlatning zamonaviy rivojlanish yo'naliishlari, iqtisodiy diversifikatsiya va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.

J. Qo'chqorovning "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar" kitobida [2] iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishi va natijalari chuqur tahlil qilingan. Bu kitob O'zbekiston tajribasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Islomov S. "Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi" asarida [3] raqamli iqtisodiyot va

texnologik taraqqiyotning barqarorlikka ta'siri keng o'rganilgan.

Kudrin A. "Global iqtisodiy siyosatning zamona viy yo'nalishlari" kitobida [8] MDH davlatlari tajribasi va ularning global iqtisodiy muhitdagi roli yoritilgan. Bu asar global iqtisodiy trendlarga moslashish imkoniyatlarini o'rganishda ahamiyatlidir.

Nazarov R. "Mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish masalalari" kitobida [9] mintaqaviy iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish omillari tahlil qilingan.

Stiglits J. "Globalizatsiya va uning noxush oqibatlari" kitobida [10] xalqaro iqtisodiyotning globallashuvi va uning ijobjiy hamda salbiy oqibatlari haqida chuqur tahlillar keltirilgan.

Sacks J. "Qashshoqlikni tugatish" asarida [11] iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali qashshoqlikka barham berish masalalari o'rganilgan. Bu asar rivojlanayotgan davlatlar uchun qimmatli tavsiyalarini o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning birligi va o'zaro ta'siri iqtisodiy tizimni hosil qiladi. Iqtisodiy tizimlar (economic systems) – bu ma'lum bir butunlik, jamiyat iqtisodiy tarkibini hosil qiladigan o'zaro bog'liq iqtisodiy unsurlar majmui; iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish yuzasidan vujudga kelgan munosabatlar birligidir.

Iqtisodiy tizim rivojlanishi va amal qilishiga tabiiy-iqlim (yer yuzida joylashgan joyi, suv bilan ta'minlanganlik, yerning unumdarlik darajasi), ijtimoiy-madaniy (insonning ma'naviy-ongli hayot faoliyati) va ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar (mehnat vositalari, mehnat buyumlari, ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlovchi insonning ahvoli, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, mulkchilik tavsifi va shakllari, samaradorlik darajasi va h.k.) iqtisodiy tizim holatini tavsiflashda belgilovchi omillar hisoblanadi.

Iqtisodiy tizim xarakterini belgilovchi turli-tuman ishlab chiqarish-iqtisodiy omillari orasida asosiy omillar, ya'ni mulkchilik munosabat- lari va xo'jalik yuritish shakllari ajratiladi. Mulkchilik – bu kishilar tomonidan moddiy ne'matlarning (mehnat vositalari va buyumlari) ularning ishlab chiqarish, ayrboshlash va iste'mol qilish jarayonida o'zlashtirishning tarixan belgilangan shaklidir. Mehnat vositalari yoki mehnat buyumlarining ma'lum bir shaxs tomonidan o'zlashtirilishi boshqa hech kim ishlab chiqarish jarayonida birinchi shaxs sifatida chiqmagan holda ulardan ishlab chiqarish jarayonida (iste'molda) foydalana olmasligini anglatadi. Mulkchilik munosabatlari mehnat buyumini (vositasi) bir shaxs mulkiga o'tkazish (o'zlashtirish) va boshqasidan begonalashtirish imkoniyatini pasaytiradi. Begonalashish ma'lum shaxsning mehnat buyumi (vositasi)dan ishlab chiqarish, iste'molda foydalanish imkoniyatini yo'qotishini bildiradi, bu ham ikki shaxs o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini, masalan, sotishni ko'zda tutadi.

Shunday qilib, mulkchilikning iqtisodiy mazmuni – bu kishilar o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimidir. Mulkchilikning iqtisodiy mazmuni uning amal qilishi orqali yoritiladi: egalik qilish, boshqarish va nazorat. Mulk sub'ektining ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati ustidan nazorat asosiysi hisoblanadi. Kishilar, korxona va davlat mulkchilik sub'yektlari bo'lishi mumkin. Iqtisodiy resurslar va tayyor mahsulot mulk ob'ektlari hisoblanadi. Mulkchilik iqtisodiy va huquqiy mazmunlar birligi hisoblanadi.

Real hayotda ular uzviy bog'liqdir. Jamiyatdagi kishilar o'rtasidagi munosabatlar qandaydir muvofiqlashtirish usuliga ega. Kishilarni muvofiqlashtirishning ikki xil usuli mavjud: tartibsiz va ierarxik. Tartibsizlik tartibi kishilarning mavjud sharoitlarga ularni o'rabi turgan axborotlar yordamida moslashishini bildiradi. Kishilarning ierarxik harakatlari hukumat ko'rsatmalari, qonunlari va h.k.larga bo'ysundirilgan. Iqtisodiy tizimlar- ning tarixiy tasniflanishi zamonaviy, o'tmishdagi va bugungi tizimlarni o'z ichiga olishi zarur. Industrlashtirishgacha, industrlashgan va yuqori darajada industrlashgan iqtisodiy tizimlar ajratiladi (1-jadval).

1-jadval.

Iqtisodiy tizimlarning tarixan rivojlanishi

Industrlashtirishgacha	Industrlashgan	Yuqori darajada industrlashgan
Iqtisodiyotning asosiy sohasi		
Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmat ko'rsatish sohasi
Cheklovchi omil		
Yer	Kapital	Axborotlar
Hukmron ijtimoiy guruh		
Yer egalari	Kapital egalari	Axborot egalari

Iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlash jarayoni, bir tomondan, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar umumiy mazmuni bilan uzviy va ob'ektiv bog'liq bo'lgan barqarorlashtirish jarayoni bilan, boshqa tomondan esa jahon iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar va tendensiyalarni hisobga olgan holda ob'ektiv iqtisodiy voqelik bilan bog'liq.

Ma'lumki, iqtisodiy tizim barqarorligini tadqiq etishning asosiy uslubiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

1. iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlash jarayoni va bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish jarayonining birligi va ularning ob'yektiy iqtisodiy voqelik bilan o'zaro aloqadorligi tamoyili;
2. iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlashda mamlakat yagona moliyaviy-iqtisodiy makonining uzviyligi tamoyili;
3. iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlash asosiy vazifalarini bajarishda turli bo'g'in manfaatlari va maqsadlarini kelishtirish tamoyili.

Ekologik omilni hisobga olmagan holda iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlashning mumkinmasligi bilan bog'liq ravishda, iqtisodiyadabiyotlarda iqtisodiy tamoyillar tadqiqotning ijtimoiy-ekologik yo'nalishini aks ettiradigan tamoyillar guruhi bilan to'ldirilgan:

1. ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonida tabiiy resurslarning cheklanganligi to'g'risidagi qoidalarning anglanishi va qabul qilinishi tamoyili;
2. mazkur jarayonda iqtisodiy va ekologik tarkibiy qismlarning o'zaro o'rincbosuvchanligini ko'zda tutadigan iqtisodiy rivojlanish barqarorligi asoslarining bir butunligi tamoyili;
3. iqtisodiy rivojlanish barqarorligiga o'tish muammolarining tadqiqotiga ko'p omilli yondashuv tamoyili;
4. iqtisodiy rivojlanish barqarorligi muammolarining tadqiqotiga insonparvarlik

yo'naltirilganligi tamoyili;

5. ekotizimlar biologik unumdorligi va antropogen ta'sirlar hajmi majburiy muvofiqligini belgilaydigan ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish tamoyili;

6. inson ishlab chiqarish faoliyatining nafaqat yaqin, balki uzoqlashgan oqibatlarini ham hisobga olishga qaratilganligi tamoyili.

Iqtisodiy tizim barqarorligining vujudga kelish jarayoni hozirgi bosqichda globallashuv jarayonlari bilan tavsiflanadigan jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlari, muntazam o'zgarib borayotgan sharoitlarining ta'siri bilan murakkablashmoqda. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlarining ta'sirini hisobga olmagan holda iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlashning mumkinmasligi, tadqiqot tashqi iqtisodiy jihatini aks ettiradigan iqtisodiy tizim barqarorligi tamoyillarini ajratish zarurligini belgiladi.

1. Iqtisodiy tizim barqarorligi va jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonlari tadqiqotining birligi tamoyili, ya'ni iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlash jarayoni uning va globallashuv jarayonlari mazmunining birxillagini anglash nuqtai nazaridan tadqiq etilishi va amalgaoshirilishi zarur.

2. Jahon iqtisodiyoti barcha darajalarining (mega-, makro-, mezo-, mikro- darajalar) o'zaro bog'liqligi va o'zarobelgilanganligi tamoyili.

NATIJALAR

Ma'lum berilgan darajalarda ushlab turish zarur bo'lgan va ulardan barqaror va muvozanatlashgan iqtisodiy o'sish «uskunalar yo'lagi»ni shakllantirish mumkin bo'lgan barqarorlik (muvozanat) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin: YaIM ning o'sish sur'atlari; pul massasining o'sish sur'atlari; davlat budgeti taqchilligi ko'lami; davlat qarzları hajmi; milliy valyuta kursining tebranish chegaralari; oltin-valyuta zaxiralari hajmi; tashqi qarzlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar hajmi; YaIM da jamg'armalar darajasi; milliy bozorning alohida segmentlarida xorijiy tovarlar salmog'i; ishsizlik darajasi; Jini indeksi (aholi turli qatlamlari pul daromadlarini taqsimlashda tengsizlik darajasi); kambag'allik darajasi indeksi; ekologik barqarorlik indeksi. Ko'pchiligi miqdoriy o'lchamlarga ega bo'lgan ko'rsatkichlarning miqdorini uch toifaga ajratish mumkin:

- optimal;
- bo'sag'aviy;
- kritik.

Xususan, iqtisodiyotning nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga faqat yillik inflyatsiya darajasi 5% dan oshmaydigan sharoitdagina erishish mumkin – bu ko'rsatkichning optimal miqdoridir.

Yillik inflyatsiya darajasi 40% bo'lganda, iqtisodiy o'sish barham topadi – bu ko'rsatkichning bo'sag'aviy miqdori.

Yillik inflyatsiya darajasi 100% dan oshib ketganda, sanoat ishlab chiqarishining pasayishi va YaIM qiymatining kamayishi boshlanadi – bu ko'rsatkichning kritik miqdori.

Iqtisodiy tizim xavfsizligining bir necha darajalari mavjud. Tizim xavfsizligining birinchi darajasi dinamik muvozanat holatining fundamental asosi hisoblanib, yalpi talab va yalpi taklifning yig'indisida YaIM o'sishining potensial barqaror sur'atlarini

ta'minlaydigan ichki va tashqi omillarini qo'shishning matematik natijasi sifatida modellashtiriladi.

Iqtisodiy rivojlanish xavfsizligi va barqarorligining ikkinchi darjasи nazariyada intensivligi bo'yicha bir xil bo'lмагan investitsion kapital oqimlari potensiallarining mavjud farqi hisobiga talab va taklifning turli darajalarini tabiiy tenglashtirish oqibatida yuzaga keladigan baqarorlikning energometrik holati sifatida kuchlar muvozanati hisoblanadi. Makroiqtisodiyotda potensial barqaror energometrik holat termodinamikadagi jismoniy muvozanat an'anaviy tenglamalariga o'xshash modellashtiriladi.

Barqarorlikning uchinchи darjasи bozor tizimi rivojlanishining yuqori darajalarida raqobat muhitini oldindan belgilangan holda o'rnatadigan va jamiyat xavfsizligi va barqarorligining yuqoriroq darajasini ta'minlaydigan axborot tartibi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash yo'lida ko'plab ijobiy natijalarga erishmoqda. Hozirgi kunda diversifikatsiya, investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni modernizatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqmoqda.

Ammo bu jarayon davomida yechilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Avvalo, iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsiyalarni keng joriy etish va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirish muhimdir. Shu bilan birga, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish orqali inson kapitalining salohiyatini oshirish talab etiladi.

O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilinayotgan strategik dasturlar va qarorlar ushbu maqsadlarga erishish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xususan, Yangi O'zbekiston strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi, balki mamlakatning xalqaro maydonidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish, shuningdek, ekologik muammolarni hal qilish va aholi farovonligini oshirish orqali O'zbekiston dunyoda o'zining iqtisodiy va ijtimoiy barqaror davlat sifatidagi obro'sini yanada oshiradi.

Kelgusida, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarning uzluksiz davom ettirilishi, xususan, yoshlar va ijtimoiy zaif qatlamlar uchun imkoniyatlar yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni rag'batlantirish kabi yo'nalishlar mamlakatni global iqtisodiyotning faol ishtiroychisiga aylantiradi. Shu tariqa, O'zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro iqtisodiy tizimda muhim o'rinn egallashda davom etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent, 2021.
2. Qo'chqorov J. "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar". Toshkent, 2019.
3. Islomov S. "Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi". Toshkent, 2018.
4. Abduqodirov A. "Barqaror iqtisodiyot va uning asoslari". Toshkent, 2020.
5. Ubaydullayev X. "Investitsiya siyosati va iqtisodiy barqarorlik". Toshkent, 2017.

6. Bekmuratov A. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi: rivojlanish istiqbollari". Toshkent, 2022.
7. Ergashev B. "Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlari". Toshkent, 2021.
8. Kudrin A. "Global iqtisodiy siyosatning zamonaviy yo'nalishlari". Moskva, 2018.
9. Nazarov R. "Mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish masalalari". Bishkek, 2019.
10. Stiglits J. "Globalizatsiya va uning noxush oqibatlari". Toshkent, 2005.
11. Sacks J. "Qashshoqliknii tugatish: zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlar". Toshkent, 2010.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

